

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## BADIIY ASAR TILIDA O‘ZBEK TURKMAN TILLARINING FONETIK TIZIMIDAGI AYRIM O‘ZIGA XOSLIKLAR

**Buranova Shaxista Menglibayevna**  
*Nukus DPI dotsenti*

**Sattarov Aydogdi**  
*O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim  
yo‘nalishining  
1- bosqichtalabasi*

***Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek va turkman tillarining fonetik tizimidagi umumiy o‘xshashliklari va farqli tomonlari tadqiq etilib, misollar asosida izohlandi.*

***Kalit so‘zlar:** fonetika, turkiy tillar, o‘zbek tili, turkman tili, unli tovushlar, undosh tovushlar, tarjima, qiyosiy tahlil, fonetik qonuniyatlar.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются общие сходства и различия в фонетической системе узбекского и туркменского языков и объясняются их на примерах.*

***Ключевые слова:** фонетика, тюркские языки, узбекский язык, туркменский язык, гласные, согласные, перевод, сравнительный анализ, фонетические законы.*

***Annotation.** The article examines the general similarities and differences in the phonetic system of the uzbek and turkmen languages and explains them with examples.*

***Key words:** phonetics, turkic languages, uzbek, turkmen, vowels, consonants, translation, comparative analysis, phonetic laws.*

Millatlarning bir-biriga yaqinlashuvi – biri ikkinchisidan o‘rganishda badiiy tarjimaning roli g‘oyat kattadir, chunki turli millat vakillari badiiy adabiyot orqali biri ikkinchisining tarixi, madaniyati, etnografiyasi kabi qator masalalari bilan yaqindan tanishadilar, ularni o‘z ona tillarida o‘qib, hayotiy saboq oladilar. Ayni maqsadda, “Turkiston viloyatining gazetisi” xodimi ma’rifatparvar Sattarxon (1848-1901) badiiy tarjimaning zarurligini alohida ta’kidlab, “kamolat hosil qilib borayotgan har bir xalq boshqa bir xalqning tilidagi ilmini, imkoni boricha, andin o‘z xalqi bahramand bo‘lsin uchun o‘z tiliga tarjima qiladurlar” deydi [3 :7].

Shu boisdan ham badiiy asarlar tarjimasini tilida turkiy xalqlar san’ati tarixidan asl nusxadagi yozma adabiyoti bilan birga rivojlanib keldi va uning ajralmas qismi bo‘lib qoldi. Turkman tili turkiy tillarning o‘g‘uz guruhiga mansubligi bois fonetik jihatdan xususan unilarning miqdori va sifati jihatdan farq qiladi:

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘zbek adabiy tilida unli tovushlar oltita: i, e, a, o, u, o‘.

Turkman adabiy tilida esa unlilar to‘qqizta: a, ä, i, y, o, ö, ü, u, e.

Turkman tilining o‘zbek tilidan fonetik jihatdan asosiy farqlari o‘ziga xosliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. O‘zbek tilidagi jarangsiz **T, K** undoshlari o‘rnida bir qator so‘zlarda jarangli **D, G** undoshlari ishlatiladi.

O‘zbek: *Tosh, temir, teng, tepa, teri, tog‘* va hk.

Turkman: *Daş, demir, deň, dag, deri* kabilar.

1. O‘zbek tilidagi jarangsiz **Y** undoshi o‘rnida jarangli **J** undoshi ishlatiladi:

O‘zbek: *achchiq, achchiqdanak, chuchuk, kuchuk,*

Turkman: *Ajy, ((рус горкуй)) ajy däne (урюк с горькой косточкой), süýji, güjük* va h.k.

Bulardan tashqari **M>B, G‘>G, Q>G** kabi fonetik hodisalar hamda o‘zbek tiliga xos bo‘lgan bo‘g‘iz tovushi **H** undoshining yo‘qligi bilan farq qiladi: *Muz-buz, bog‘-bag (rus. cad), qiz-gyz, (девочка), quloq-gulak, qo‘shmoq-goşmak* kabilar. Xullas, o‘zbek va turkman tillararo fonetik jihatdan qator umumiylik, mavjudligi bilan bir qatorda ayrim o‘ziga xosliklar ham uchraydi: **H, G‘, Q** va h.k. Tarjimada bu tovushlarning ma‘no farqlash jihatlari (*xush-hoş*)ga e‘tibor bergan holda o‘z ona tiliga o‘girish tarjimon mas‘uliyatini taqozo qiladi. Zero, tarjima muammosining asosi so‘z tanlash, muqobil leksema qo‘llash ekan, so‘zning fonetik qurilishinibiror harfning ma‘no farqlash xususiyatlarini farqlash kerak.

Mazkur kichik tadqiqotimizda biz o‘zbek, turkman tillarining o‘zaro munosabatini, ulardagi umumiylik va farqli tomonlarini fonetik jihatdan o‘rganish maqsadida P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanining turkman tiliga “Ýyldyzly gijeler” mavzusida Shodurdi Choriyevning turkman tiliga o‘girmasidan saralangan misollar tarqasida tahlil o‘rganib chiqishga harakat qildik.

Sh.Choriyev ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid ko‘pgina turkmancha lug‘aviy birliklarni, asosan o‘rinli qo‘llagan. Chunki badiiy asarda ishlatilgan barcha so‘zlar ham tasviriy vositalardir. Ana shu so‘zlar vositasida yozuvchi badiiy asarning obrazlilikini, emotsional-ekspressivligini, g‘oyasini so‘zlar vositasida o‘quvchiga yetkazib beradi, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga o‘quvchining munosabatini uyg‘otadi. Busiz badiiy asar badiiy tarjima haqida ham gap bo‘lishi mumkin emas [4: 22].

Misollar: O‘zbekcha asliyatda: *qo‘l, qoshiq, jala, sel, qamchi, ko‘za, mulla, ajal, tuhmat, jar, ko‘kaldosh, muddao.*

Turkman tarjimada: *el, çemçe, çabga, sil, gamçy, küýze, molla, ajal, töhmet, garym, emekdeş, isleg.*

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Qiyoslang:

Asliyat	Tarjima
Ajalga davó yo‘q.	Ajala çäre ýok
Chopar yubormoq	Çapar göndermek
Xavotirlanmoq	Ga‘gy etmek
(Y.T. 5, 18, 24)	(Ý.G. 6,23,31)

Keltirilgan misollar, qiyosiy jadvalda ko‘rsatilgan gaplardan ma‘lum bo‘lishicha, Sh. Choriyev asl nusxadagi fonetik qurilishga mutanosiblikni turkman tiliga mos leksemalar bilan ifodalay olgan. Ba‘zilari o‘sha ma‘noni aks ettiradigan turkman tili uchun leksik me‘yor hisoblangan *çemçe, çabga, isleg, çäreso‘zlari* o‘zbek tilida *qoshiq, sel, muddao, chora* kabi aytiladi. Demak, ko‘pgina so‘zlarda leksik mushtaraklik saqlangani holda, farqlar ham mavjud: *yubormoq-göndermek, xavotirlanmoq-ga‘gy etmek* va h.k. Ayni holat o‘zbek, turkman tillarida unli harflarning miqdorsifati bilan izohlanadi: Turkman tilida unliharflar 9 ta, hamma harflar miqdori 30 ta (TSA, 38-b) [1:111].

Tabiiyki, turkman o‘zbek tillari ba‘zi fonemalarda o‘ziga xoslikka ega. Lekin turkman tilidagi old qator yumshoq ä,ü,ö, unliharflarining funksiyasi til oldi *a*, til orqa *u*, *o* unliharflariga yuklangan.

Qiyoslang:

Turkman: *özbeq, öykelemek, çüý, äşgär* vah.k.

O‘zbek: *o‘zbek, o‘pkalamoq, mix, oshkorva* h.k.

Turkman tilida maxsus yumshoq unliharflar mavjudligidan tashqari bu tilda ma‘no farqlash xususiyatiga ega bo‘lgan cho‘ziqlik ham mavjudligi bilan o‘zbek tilidan farq qiladi. O‘zbek, turkman tillararo fonetik farqlar, ayrim cho‘ziqlik, qisqaliklarni quyidagi misollarda yaqqol ko‘rinadi. Jadvalni kuzating.

Turkman	O‘zbek
Işçi gyz	Ishchi qiz
Öydäki kitap	Uydagi kitob
Işlemezän	Ishlamayman
Gönüräk uçyan	To‘g‘riroq uchadigan
Nadan adam	Nodon odam
Okan adam	O‘qigan odam
Ulurak buz	Kattaroq muz

Tarjimada ana shunday xususiyatlar hisobga olinmasa badiiy asar tilining asl nusxasida berilgan maqsadni ifodalash qiyin, albatta: o‘zbekcha «*ko‘rmoq*» fe‘lining

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o‘zini turkmancha cho‘ziq o‘ unlisi bilan berilsa, ma’no o‘zgaradi. Shuning uchun tarjimon qisqa ö unlisi bilan berganqardosh tillarning o‘zida ham ayrim so‘zlar polisemiyasi bir-biriga qiyos qilinganda, ularda o‘ziga xos xususiyatlar juda ko‘pligini bilib olish mumkin [2: 163].

O‘zbek, turkman tillari genetik jihatdan turkiy tillar oilasiga mansublikdan har ikki tilning lug‘at tarkibida ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid umumturkiy o‘zlar avjud: *bosh, til, kun, qish, so‘z, tosh, ot, beg, suv, yugur, bo‘l, besh, qipchoq, o‘g‘uz* va shu kabilar. Bunday so‘zlar bir qator turkiy xalqlar tillarida asrlar davomida qo‘llanib kelgan, hozir ham qo‘llanilmoqda. Bu holat turkiy tillar leksikasida o‘xshash lug‘at umumturkiy so‘zlar qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, ozarbayjon, uyg‘ur, o‘zbek, turkman tillarida ham o‘sha tillarning fonetik qonuniyatiga mos ishlatilaveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Grammatika sovremennogo turkmenskogo yazyka. Chast I, 1970, 107-111-b.
2. Salomov G'. Tarjima san'ati. – Toshkent :Fan, 1983. 163-bet
3. Sharipov J. O‘zbekiston tarjima tarixidan. – Toshkent: Fan, 1965, 7-b.
4. Qo‘ngurov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977, 22-b.
5. Mirtojdiyev M.M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent, Fan, 2013. 424 bet.
6. Чарыяров Б., Назаров О. Туркменский язык // [Языки мира](#): Тюркские языки. – М., 1997.
7. [Грунина Э. А.](#) Туркменский язык. – М.: Восточная литература, 2005. 288 с.